



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

FONETIKA BO'LIMINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS USULLARI TAHLILI

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich va o'rta sinflarida fonetika bo'limini o'qitishda interfaol usullarni qo'llashning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbekistonlik olimlarning so'nggi yillardagi ilmiy ishlari, xususan, fonetik o'yinlar va an'anaviy o'qitish usullarini qiyosiy tahlil etuvchi eksperimental tadqiqotlar natijalariga tayaniladi. Maqolada "Venn diagrammasi", "Klaster" kabi grafik organayzerlar, fonetik o'yinlar, texnologiya vositalari va nutqiy mashqlarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Muallif interfaol metodlarning o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, darsga bo'lgan motivatsiyani oshirish va fonetik bilimlarni mustahkamlashdagi samaradorligini ilmiy asoslab beradi.

Kalit so'zlar: fonetika, interfaol metodlar, fonetik o'yinlar, Venn diagrammasi, klaster, nutqiy mashqlar, kognitiv faollik, o'zbek maktablari.

АНАЛИЗ СПЕЦИФИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА ФОНЕТИКИ

Ганиева Дилдора Сагдуллаевна

Каттакурганский государственный педагогический институт, (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы и практическая значимость применения интерактивных методов при обучении разделу «Фонетика» в начальных и средних классах общеобразовательных школ. Исследование опирается на научные труды узбекистанских ученых за последние годы, в частности, на результаты экспериментальных исследований, в которых проводится сравнительный анализ фонетических игр и традиционных методов обучения. В статье анализируется интегрированное использование таких графических органайзеров, как «Диаграмма Венна» и «Кластер», а также фонетических игр, технологических средств и речевых упражнений. Автор научно обосновывает эффективность интерактивных методов в развитии способностей учащихся к самостоятельному мышлению, повышении мотивации к уроку и укреплении фонетических знаний.

Ключевые слова: фонетика, интерактивные методы, фонетические игры, диаграмма Венна, кластер, речевые упражнения, когнитивная активность, узбекские школы.

ANALYSIS OF SPECIFIC METHODS FOR TEACHING THE PHONETICS SECTION

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna

Kattakurgan State Pedagogical Institute, PhD

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of using interactive methods in teaching the phonetics section in primary and middle grades of general education schools. The study is based on recent scientific works by Uzbek scholars, particularly experimental research comparing phonetic games with traditional teaching methods. The article examines the integrated use of graphic organizers such as the "Venn Diagram" and "Cluster," phonetic games, technological tools, and speech exercises. The author scientifically substantiates the effectiveness of interactive methods in developing students' independent thinking skills, increasing their motivation toward the lesson, and strengthening phonetic knowledge.

Keywords: phonetics, interactive methods, phonetic games, Venn diagram, cluster, speech exercises, cognitive activity, uzbek schools.

Fonetika bo'limini o'qitishda qo'llaniladigan an'anaviy yondashuv — xususan, o'qituvchining monologik bayoni, jadval va sxemalar vositasida tovushlarni tasniflash hamda ko'chirib yozish mashqlari — o'zining pedagogik samaradorligini isbotlagan bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim paradigmasi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy yondashish kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qiladi [2; 9]. Ushbu maqolaning maqsadi — o'zbek maktablarida

fonetika bo'limini interfaol usullar yordamida o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini tahlil qilish, mavjud tajribalarini umumlashtirish va samarali metodlarni tavsiya etishdan iborat.

1. Fonetika bo'limining o'qitishdagi o'rni va vazifalari. Fonetika — yunoncha *phone* (“tovush”) va *tike* (“fan”, “ta’limot”) soʻzlaridan olingan boʻlib, nutq tovushlari va ularning ifoda vositalarini tadqiq etuvchi tilshunoslik sohasidir [2; 6]. Maktab dasturida fonetika boʻlimi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. O'quvchilarni ona tilining tovush tizimi bilan tanishtirish;
2. Tovushlarning artikulyatsion, ya'ni talaffuz xususiyatlarini o'rgatish;
3. To'g'ri talaffuz va imlo qoidalarini shakllantirish;
4. Bo'g'in, urg'u, ohang kabi fonetik hodisalar haqida tushuncha berish;
5. Nutqiy eshitish va fonematik idrokni rivojlantirish [2; 8].

Amalga oshirilgan tadqiqotlar fonetika bo'limini puxta o'zlashtirmagan o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida soʻzlarni to'g'ri yozish, matnni ifodali o'qish va nutqiy muloqot ko'nikmalarida sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi [3; 8]. Shu nuqtayi nazardan, fonetik bilimlarni shakllantirishda samarali metodlarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. An'anaviy va interfaol o'qitish usullarining qiyosiy tahlili. An'anaviy o'qitish metodlari asosan o'qituvchining faol ishtirokiga asoslanadi, bunda o'quvchi asosan tinglovchi va takrorlovchi vazifasini bajaradi. Fonetika bo'limini o'qitishda ushbu metodlarning tarkibiga tovushlarni ko'rgazmali vositalar yordamida tahlil qilish, jadvallar shakllantirish, diktant hamda ko'chirib yozish mashqlari kiradi [1; 3]. Interfaol o'qitish usullari esa o'quvchini darsning faol subyektiga aylantiradi, uning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy yondashuvini rag'batlantiruvchi muhit yaratadi [5; 7]. Bu usullarning asosiy xususiyati — o'quvchilar o'rtasida va o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro faol aloqa mavjudligidir.

A.M. Dadaxanov tomonidan Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarining 700 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan eksperimental tadqiqot interfaol metodlarning samaradorligini ko'rsatdi. Fonetik o'yinlar asosida o'qitilgan eksperimental guruh o'quvchilarining fonetika bo'yicha bilim ko'rsatkichlari an'anaviy dastur asosida o'qitilgan nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'lgan [1; 10]. Kengroq miqyosda tashkil etilgan tadqiqotda 960 nafar 5-sinf o'quvchilari ishtirokida olingan natijalar interfaol metodlarning ustunligini yaqqol ko'rsatadi. Eksperimental guruhda test ballarining o'rtacha qiymati 40 balldan 65 ballgacha, ya'ni 62,5 foizga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 43 balldan 50 ballgacha, ya'ni 16,3 foizga o'sgan. Qolaversa, eksperimental guruh o'quvchilarining 85 foizi darsga bo'lgan qiziqish va o'ziga bo'lgan ishonch darajasi yuqori ekanligini bildirgan [3].

3. Fonetika o'qitishda qo'llaniladigan interfaol metodlar tahlili

3.1. Grafik organayzerlar asosidagi metodlar. Venn diagrammasi — ikki yoki undan ortiq tushunchalarning o'xshash hamda farqli jihatlarini vizual tarzda ifodalash imkonini beruvchi samarali metoddir. Fonetika bo'limini o'qitishda ushbu diagrammadan unlilar yoki undoshlarni qiyosiy tahlil qilishda keng foydalaniladi. Misol tariqasida “a” va “o” unlilarining qiyosiy tahlilini keltirish mumkin: ikkala tovushning ham til tovushi ekanligi umumiy belgi sifatida, “a”ning til oldi unlisi, “o”ning esa til orqa unlisi ekanligi farqlovchi belgi sifatida diagrammada vizual tarzda aks ettiriladi [2; 6].

Klaster metodi — mavzuning asosiy tushunchasi atrofida unga tegishli barcha ma'lumotlarni tarmoqlashtirish yo'li bilan tizimlashtirishga asoslangan interfaol usuldur. Fonetika darslarida klaster “tovush” markaziy tushunchasi asosida unlilar, undoshlar, ularning tasnifi, bo'g'in, urg'u kabi tarmoqlarni o'z ichiga olgan holda tuziladi [2].

3.2. Fonetik o'yinlar — o'quvchilarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, farqlash va soʻz tarkibida aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol mashqlardir. Ularning samaradorligi bir qator ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan [1; 3].

Fonetik o'yinlarning turlari:

1. “Tovushni top” o'yinlari — o'qituvchi talaffuz qilgan soʻz tarkibidagi ma'lum bir tovushni aniqlash;
2. “Zanjir” o'yinlari — oxirgi tovush bilan boshlanadigan soʻzlarni ketma-ket aytish;
3. “Kim ko'p biladi” — berilgan tovush ishtirokidagi soʻzlarni topish;
4. “Tovushni almashtir” — soʻz tarkibidagi bir tovushni almashtirib, yangi soʻz hosil qilish [3; 8].

Fonetik o'yinlarni qo'llashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi;

2. Stressni kamaytiradi va qulay psixologik muhit yaratadi;
3. O'quvchilarning o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
4. Fonematik eshitishni shakllantiradi;
5. O'quv materialini ongli va mustahkam o'zlashtirishga xizmat qiladi [3; 5].

Zamonaviy fonetika darslarida texnologiya vositalaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. Audioyozuvlar orqali tovushlarning to'g'ri talaffuzini namoyish etish, video darslar, interfaol doskalarda tovushlarning artikulyatsion sxemalarini ko'rsatish, fonetik tahlil dasturlaridan foydalanish — bularning barchasi o'quvchilarning tovush tizimini idrok etishini osonlashtiradi [8].

F. Niyozovanning ta'kidlashicha, nutqiy mashqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Eshitib takrorlash mashqlari — o'qituvchi yoki audioyozuvdagi tovush, so'z, gapni eshitib, to'g'ri talaffuz bilan takrorlash;
2. Minimal juftliklar bilan ishlash — ma'no farqlovchi tovushlarni, masalan, “bir” va “bur” so'zlarini qiyosiy talaffuz qilish;
3. Til o'rgatmalari — talaffuzi qiyin bo'lgan tovushlarni ketma-ket takrorlashga asoslangan mashqlar;
4. Kontekstli mashqlar — tovushlarni bog'langan nutq, ya'ni gap yoki matn doirasida talaffuz qilish;
5. Intonatsion mashqlar — so'roq, darak, undov gaplarni tegishli ohang bilan talaffuz qilish [8].

4. Interfaol metodlarni qo'llashning metodik tamoyillari. Fonetika bo'limini interfaol metodlar asosida o'qitishda quyidagi metodik tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1. **Muvofiqlashtirish tamoyili** — qo'llanilayotgan interfaol metod o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, sinf darajasiga va mavzu mazmuniga mos bo'lishi kerak. 5-sinfda qo'llaniladigan o'yinlar va 10-sinfda qo'llaniladigan metodlar mazmunan farqlanadi [2; 6].
2. **Bosqichlilik tamoyili** — interfaol metodlar ma'lum bir tizim va ketma-ketlikda qo'llanilishi lozim. Dastlab oddiy, so'ngra murakkabroq mashqlarga o'tish o'quvchilarning bilimini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi [3].
3. **Faollashtirish tamoyili** — o'quvchilarning barchasini faollashtirish va darsda har birining ishtirok etishini ta'minlashga yo'naltirilgan metodlarni qo'llashni nazarda tutadi. Buning uchun guruhli ishlar, juftlikda ishlash, “davra suhbat” kabi shakllardan foydalaniladi [5; 7].
4. **Integratsiya tamoyili** — interfaol metodlarni fonetika bo'limini tilning boshqa bo'limlari, ya'ni grammatika va leksikologiya bilan bog'lab qo'llashni nazarda tutadi. Tovushlarni o'rganishda ularning so'z yasaliishi va grammatik shakllardagi o'rnini ko'rsatish bilimlarni mustahkamlaydi [2; 6].
5. **Baholash va refleksiya tamoyili** — interfaol darslarda o'quvchilarning faoliyatini baholash va ular o'z faoliyatini tahlil qilishi muhim o'rin tutadi. Bu usul o'quvchilarga o'zining kuchli va zaif jihatlarini anglash imkonini beradi [5; 3].

5. Amaliy tavsiyalar va istiqbollar. Fonetika bo'limini interfaol usullar asosida samarali tashkil etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

1. Darslarni loyihalashtirishda integrativ yondashuv — har bir darsda kamida 1–2 interfaol metoddan foydalanishni rejalashtirish. Masalan, darsning kirish qismida “Klaster”, asosiy qismida “Venn diagrammasi” va mustahkamlash qismida fonetik o'yinlarni qo'llash.
2. Didaktik materiallar bazasini shakllantirish — har bir sinf va mavzu bo'yicha fonetik o'yinlar, kartochkalar, audio va video materiallar to'plamini yaratish. Maktab pedagogik kengashlari doirasida tajriba almashish amaliyotini yo'lga qo'yish.
3. O'qituvchilarning malakasini oshirish — interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha o'qituvchilar uchun seminar-treninglar, ochiq darslar, “ustoz-shogird” tizimida tajriba almashishni tashkil etish.
4. Texnologik ta'minot — fonetika darslarida audio va video vositalardan, interfaol doskalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Maktablarning texnik jihozlanishi darajasidan kelib chiqib, qo'lda tayyorlanadigan ko'rgazmali qurollardan ham samarali foydalanish mumkin.
5. Monitoring va tahlil — interfaol metodlarning samaradorligini muntazam ravishda monitoring qilib borish, test sinovlari, kuzatuv va so'rovnomalar asosida natijalarni tahlil qilish.

Kelajakda fonetika bo'limini o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi fonetik analizatorlar, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarga tovushlarni talaffuz qilishdagi xatolarini real vaqt rejimida tahlil qilish va to'g'rilash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosalar quyidagi ko'rinishda shakllanadi:

1. Fonetika bo'limi o'zbek maktablarida ona tili ta'limining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib,

uni samarali o'qitish o'quvchilarning to'g'ri talaffuz, savodli yozish va ifodali nutq ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Eksperimental tadqiqotlar natijalari interfaol metodlarning, xususan, fonetik o'yinlarning an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Eksperimental guruhlarda o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlari 25–30 foizga oshgan.
3. “Venn diagrammasi”, “Klaster” kabi grafik organayzerlar, fonetik o'yinlar, nutqiy mashqlar va texnologiya vositalarining kompleks holda qo'llanilishi o'quvchilarning kognitiv faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va darsga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantiradi.
4. Interfaol metodlarni qo'llashda muvofiqlashtirish, bosqichlilik, faollashtirish, integratsiya va baholash-refleksiya tamoyillariga rioya qilish metodik jihatdan muhim hisoblanadi.
5. O'zbek maktablarida fonetika bo'limini o'qitishda interfaol usullarni keng joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va moddiy-texnik bazani yaxshilash ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dedaxanov A.M. Comparative Analysis of Phonetics Games and Traditional Methods of Teaching Phonetics for the Formation of Cognitive Universal Learning Actions in Primary School // International Journal of Pedagogics. — 2025. — Vol. 5. — Issue 2.
2. Yuldosheva B. Fonetika bo'limini o'qitishning zamonaviy usullari // Modern Science and Research. — 2023. — Vol. 2. — Issue 12. — B. 1131–1133.
3. Dedakhanov A. Comparative Analysis of Phonetic Games and Traditional Methods of Teaching Phonetics for the Development of Cognitive Activity in Elementary School Students // Jurnal Pendidikan Guru Sekolah Dasar. — 2025. — Vol. 2. — Issue 4. — P. 6.
4. Egamberdiyeva V. The Importance of Interactive Methods in Teaching the Department of Phonetics // Science and Innovation. — 2022. — Vol. 1. — Issue 8. — B. 1202–1205.
5. Niyazova F. Teaching Pronunciation by Using Effective Techniques // Lingvospektr. — 2024. — Vol. 1. — Issue 1.
6. Xusanov A.D., Xaydarov I.Y. Oliy ta'limda innovatsion o'qitish usullari // Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali. — 2023. — № 4.
7. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili: 5-sinf uchun darslik. — T.: G'afur G'ulom, 2020.
8. Mehmonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. — T.: O'qituvchi, 2020.